# ADLIYA HISOBOT BERADI

## 2021-YIL SARHISOBI VA REJALAR

Toshkent – 2022 y.

# MUNDARIJA

**KIRISH** .......... **5**

**I. FAOLIYATDAGI MUHIM YANGILIKLAR** .......... **7**

**II. ADLIYA ORGANLARI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN MUHIM ISHLAR** .......... **11**

Huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish .......... 12
Ijtimoiy-iqtisodiy sohada huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish sohasida .......... 17
O'zbekiston respublikasi prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini nazorat qilish sohasida .......... 19
Davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini tahlil qilish .......... 21
Ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish va monitoring qilish .......... 22
Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni rivojlantirish sohasida .......... 23
Tartibga solish ta'sirini baholash faoliyati .......... 24
Davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish .......... 25
Yuridik ta'lim, yuridik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash .......... 28
Yuridik xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish .......... 33
Jamiyatda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish .......... 36
Jamoatchilik bilan ishlash .......... 45
Davlat tili nufuzini oshirish borasida .......... 47
Notariat va advokatura .......... 48
Inson huquqlarini himoya qilish .......... 51
Nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish .......... 53
Xalqaro-huquqiy hamkorlik .......... 55
O'zbekiston respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta'minlash .......... 57
Mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini mustahkamlash borasidagi amaliy tadbirlar .......... 58
Sud-ekspertiza faoliyatini rivojlantirish .......... 59
Huquqiy siyosat tadqiqot faoliyatini rivojlantirish .......... 60
Intellektual mulk sohasida davlat siyosatini rivojlantirish .......... 61
Kadrlar bilan ishlash, xodimlar malakasini oshirish .......... 63
Adliya organlari – korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida .......... 66
Madaniy hordiq, xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash .......... 67
Farxiylar – faxrimiz .......... 69
Adliya organlari xalq bilan muloqotda .......... 70
Murojaatlarni ko'rib chiqish natijasi .......... 71
O'tkazilgan nazorat tadbirlari va natijalari .......... 73

**III. ADLIYA VAZIRLIGINING 2022-YILDAGI REJALARI** .......... **76**

**XULOSA** .......... **78**

# KIRISH

Hozirgi kunda Hukumatning axborot jihatidan ochiqligi demokratik jamiyatning ustuvor jihati, davlat organlari tomonidan qarorlarning qabul qilinishi va ijrosiga konstruktiv ta'sir usuli hisoblanadi.

Ochiqlik va shaffoflik davr talabi ekan, har bir davlat organi hamda tashkiloti keng jamoatchilik oldida hisobot berishi lozim. Adliya vazirligi xalq oldidagi mas'uliyat va hisobdorlik tuyg'usini to'liq anglagan holda bu yil ham o'zining bir yillik faoliyati haqidagi hisobotini batafsil va ko'rgazmali tarzda omma e'tiboriga havola etmoqda.

O'tgan 2021-yil ham davlat huquqiy siyosatini amalga oshiruvchi organ sifatida adliya organlari zimmasiga katta mas'uliyat yukladi va tizim oldiga jiddiy vazifalarni qo'ydi.

Biz bu vazifalarni qay darajada uddalaganimiz haqida ushbu hisobot kitobini o'qib xulosa chiqarish mumkin.

Hisobot kitobda ma'lumotlar avvalgi yilgi natijalarga qiyoslanib, faoliyatimizdagi o'zgarishlar dinamikasi haqida ma'lumot berilgan.

Biz hisobot berar ekanmiz, jamoatchilik oldidagi mas'uliyatlarimizni yanada chuqurroq anglaymiz, oldimizda qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'pligini yanada aniqroq his qilamiz. Shu sababli ushbu hisobot kitobi biz uchun juda muhim.

Hisobotda ma'lumotlarni taqdim qilishda infografika, diagramma, jadval kabi tasviriy vositalardan foydalanilgan.

Bundan tashqari, adliya organlarining kelajakdagi rejalari ham bayon qilingan. Ushbu rejalarni amalga oshirish uchun faoliyatimiz samaradorligini yanada yuksaltirish hamda xalqqa yanada yaqinroq bo'lish oldimizda turgan asosiy maqsadlardan biridir.

Hisobot kitobi haqida savol va mulohazalar yuzasidan info@adliya.uz elektron manziliga murojaat qilishingiz mumkin.


ADLIYA VAZIRLIGI

# I

# FAOLIYATDAGI MUHIM YANGILIKLAR

## SOHA FAOLIYATI TAKOMILLASHTIRILDI:

Adliya organlari va muassasalari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan **18 ta** qonunchilik hujjati qabul qilindi. Shundan:



- **2 ta** Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining qarori
- **3 ta** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni
- **3 ta** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori
- **7 ta** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori
- **3 ta** idoraviy qonunchilik hujjatlari

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qo'shimcha kiritilib, unga ko'ra adliya organlarining bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalarini o'z vaqtida yoki to'liq bajarmaganlik uchun **MA'MURIY JAVOBGARLIK BELGILANDI.**

## ADLIYA ORGANLARIGA YANGI VAZIFALAR YUKLATILDI

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan birgalikda Hududlarning huquq ustuvorligi indeksida past natijalarga ega bo'lgan subyektlarni aniqlash, tegishli indikatorlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tahlil qilish va ularning sabablarini o'rganish;

qonun hujjatlari va topshiriqlar o'z vaqtida ijro etilishining "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratini olib borish va "Ijro.gov.uz" tizimini yuritish;

qonun hujjatlari va topshiriqlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan manzilli va tematik tahliliy o'rganishlarni olib borish va joylardagi holat monitoringini yuritish;

davlat organlari va tashkilotlarining qonun hujjatlari va topshiriqlar ijrosi yuzasidan huquqiy-uslubiy ko'maklashish;

davlat organlari va tashkilotlarining qonun hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlash borasidagi faoliyatini OAV va ijtimoiy tarmoqlarda "Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda" rukni ostida yoritish va muhokama qilish;

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarning tartibga solish ta'sirini baholash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga uslubiy yordam ko'rsatish;

davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining huquqiy savodxonligi darajasini oshirish bo'yicha o'qitish va baholab borish;

**YUTUQ VA E'TIROF**



## ISO 9001

sifat nazorati menejmenti xalqaro standarti sertifikatiga loyiq deb topildi.



## "GENDER TENGLIK FAOLI"

milliy koʻrik tanlovida **"Gender tenglikni ta'minlashda eng faol huquqni muhofaza qiluvchi organ"** nominatsiyasida gʻolib boʻldi.

Vazirlikning **facebook, telegram** va **instagramdagi** sahifalari rasmiy belgiga ega boʻldi.

# II

# Adliya organlari tomonidan amalga oshirilgan muhim ishlar

# HUQUQ IJODKORLIGI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH

Adliya vazirligi huquq ijodkorligi sohasida qator muvaffaqiyatlarga erishdi. Xususan, qonun hujjatlarini ishlab chiqish borasida Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan qonun hujjatlari loyihalari soni




| Yo'nalish nomi | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. |
|---|---|---|---|---|---|
| Ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar soni | 155 | 287 | 259 | 199 | 202 |
| *Shundan:* | | | | | |
| Qonun loyihalari | 32 | 57 | 55 | 44 | 52 |
| Oliy Majlis palatalari qarorlari loyihalari | 0 | 1 | 0 | 1 | 1 |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari loyihalari | 39 | 61 | 67 | 48 | 38 |
| O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari loyihalari | 58 | 81 | 110 | 81 | 80 |
| Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari | 26 | 77 | 27 | 25 | 31 |

**QUYIDAGI MUHIM QONUN HUJJATLARI LOYIHALARI ISHLAB CHIQILDI:**

- **Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar** to'g'risidagi qonun loyihasi;

- **Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish** muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident Farmoni va qarori loyihalari;

- **Yer uchastkalarini ajratish va ulardan foydalanish,** shuningdek yerlarni hisobga olish va davlat yer kadastrini yuritish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasi

- Yo'l harakati sohasidagi qonunchilikni zamon talablariga moslashtirish maqsadida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning beshta moddasidagi **ma'muriy huquqbuzarlik uchun jarimalarni keskin kamaytirishni** nazarda tutuvchi qonun loyihasi;

- Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga **"E-qaror" elektron tizimini joriy etish** chora-tadbirlari to'g'risidagi Hukumat qarori loyihasi;

- O'zbekiston Respublikasi **davlat xizmatchilarining odob-axloq kodeksini** tasdiqlash to'g'risidagi Oliy Majlis palatalarining qarori loyihasi va boshqalar.



## QONUN HUJJATLARI LOYIHALARINING HUQUQIY EKSPERTIZASI:

Vazirlikka huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kelib tushgan qonun hujjatlari soni

**2 554 ta**

Huquqiy ekspertiza natijasi bo'yicha rozilik imzosi qo'yilgan hujjatlar loyihalari soni

**1 606 ta**

qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmaganligi sababli, rozilik imzosi qo'yilmasdan qaytarilgan loyihalar soni

**640 ta**

| Yo'nalish nomi | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. |
|---|---|---|---|---|---|
| Huquqiy ekspertizaga kelib tushgan loyihalar soni | 3 163 | 2 621 | 2 754 | 2 463 | 2 554 |
| Shundan, ekspertiza o'tkazilib, xulosa berilgan loyihalar | 2 171 | 1 889 | 2 541 | 2 259 | 2 245 |
| Hukumat Reglamenti bo'yicha qaytarilgan loyihalar | 992 | 725 | 213 | 204 | 308 |
| Rozilik imzosi qo'yilgan loyihalar | 2 030 | 1 725 | 2 178 | 1 520 | 1 606 |
| Rozilik imzosi qo'yilmagan loyihalar | 154 | 171 | 363 | 739 | 640 |

## IDORAVIY NORMA IJODKORLIGI SOHASIDA:



jami **27** ta

taqdimnomalar kiritildi

**19 ta**

idoraviy hujjatlarni yuqori yuridik kuchga ega qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish bo'yicha

**4 ta**

davlat ro'yxatidan o'tmagan hujjatni bekor qilish va ijrodan chaqirib olish bo'yicha

**4 ta**

ishlab chiqish muddatini ko'rsatgan holda normativ huquqiy hujjatni qabul qilish zarurati bo'yicha

**113 ta**

yuqori yuridik kuchga ega qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirilmagan

**195 ta**

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar bekor qilindi

| Yo'nalish nomi | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. |
|---|---|---|---|---|---|
| Ro'yxatdan o'tkazilgan hujjatlar soni | 482 | 584 | 564 | 292 | 273 |
| Ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan hujjatlar | 96 | 154 | 157 | 228 | 231 |
| Reyestrdan chiqarilgan hujjatlar | 164 | 271 | 164 | 8 | 195 |
| Ro'yxatdan o'tkazilmasdan qabul qilinganligi uchun bekor qilingan hujjatlar | 12 | 5 | 1 | 18 | 4 |

## MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING NORMA IJODKORLIGI

| Yo'nalish nomi | 2017-y | 2018-y | 2019-y | 2020-y | 2021-y |
|---|---|---|---|---|---|
| Huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kelib tushgan loyihalar | 1 144 | 1 086 | 1 365 | 1 325 | 1 814 |
| Shundan, hokimlik qarorlari loyihalari | 1 002 | 951 | 1 162 | 1 008 | 1 229 |
| Shundan, Kengash qarorlari loyihalari | 142 | 135 | 203 | 317 | 585 |
| Rozilik imzosi qo'yilgan loyihalar | 956 | 929 | 1 228 | 1 147 | 1 542 |
| Shundan, hokimlik qarorlari loyihalari | 836 | 822 | 1 018 | 836 | 1 008 |
| Shundan, Kengash qarorlari loyihalari | 120 | 107 | 210 | 311 | 534 |
| Qaytarilgan loyihalar soni | 185 | 152 | 137 | 178 | 268 |

## QONUN HUJJATLARINI TAHLIL QILISH VA TIZIMLASHTIRISH SOHASIDA

project.gov.uz

3 901 ta

normativ-huquqiy hujjat loyihalari – **project.gov.uz** orqali o'tkazilgan.

Eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan, huquqni qo'llash amaliyotida byurokratik to'siq va g'ovlar hamda kolliziyalarni keltirib chiqarayotgan qoidalarni aniqlash maqsadida **"tartibga soluvchi gilotina"** usuli bosqichma-bosqich joriy etila boshlandi. 2021-yilda **"tartibga soluvchi gilotina"** usulini qo'llash orqali:

**380**
ta

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari

**1 887**
taga yaqin

Hukumat qarorlari

**467**
ta

idoraviy hujjatlar bekor qilindi

# IJTIMOIY-IQTISODIY SOHADA HUQUQNI QO‘LLASH AMALIYOTINI O‘RGANISH SOHASIDA

**Ko‘rib chiqilgan murojaatlar soni:**




**Turli sohalarda tahliliy ma’lumotnomalar tayyorlanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi va boshqa tashkilotlarga kiritildi.**




**Soha faoliyatini takomillashtirish maqsadida normativ-huquqiy hujjat loyihalari ishlab chiqildi**




15 tasi qabul qilindi.







**huquqni qo‘llash amaliyoti o‘rganildi, natijasiga ko‘ra qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlandi.**

Hududlarda huquq ustuvorligi indeksini aniqlash maqsadida **“Huquq ustuvorligi”** elektron axborot tizimi yaratildi.




Litsenziyalash va ruxsatnoma olish sohasida interaktiv xizmatlar ko‘rsatish uchun **“Litsenziya”** axborot tizimi ishga tushirildi.






## 2021-yilda ijtimoiy-iqtisodiy sohada

huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish natijalari bo‘yicha **43 ta** tahliliy ma’lumotnoma tayyorlanib, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi va boshqa tashkilotlarga kiritildi.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUJJATLARI VA TOPSHIRIQLARI IJROSINI NAZORAT QILISH SOHASIDA

- ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha vazirliklar, idoralar va xo‘jalik birlashmalarining **1 300 nafardan ortiq** xodimlari uchun o‘quv-seminarlar tashkil etildi

- hokimliklar, davlat organlari hududiy bo‘linmalari mas’ul rahbar va xodimlari uchun topshiriqlar ijrosini **“VILOYAT – TUMAN – MAHALLA”** tizimi asosida tashkil etish borasida amaliy seminarlar o‘tkazildi

- topshiriqlarni ijrochilarga o‘z vaqtida yetkazish, mazmun-mohiyatini tushuntirish, to‘liq va natijali ijro etilishini tashkil etishga doir **HUQUQIY-USLUBIY QO‘LLANMA** tayyorlandi

- “Yuksalish” umummilliy harakati va “Taraqqiyot strategiyasi” markazining platformalarida **5 ta jamoatchilik eshituvi** o‘tkazildi.



**2021-YIL 15-DEKABR HOLATIDA**

Prezidentning 4 158 ta hujjatdagi nazoratga olingan topshiriqlar soni:

62 950 ta




- hududiy adliya organlari orqali topshiriqlar ijrosini **"JOYIGA CHIQIB"** amalda nazorat qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

- Adliya vazirligida haftaning **payshanba va juma kunlari** vazirliklar, idoralar hamda hokimliklarning ijro intizomiga mas'ul bo'lgan xodimlariga topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha amaliy ko'maklashish yo'lga qo'yildi.

- o'tkazilgan o'rganish natijalariga ko'ra, Prezident hujjatlari va topshiriqlarida berilgan vazifalarni bajarishda kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi sababli tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarga jami **53 ta taqdimnoma** chiqarildi va topshiriqlar ijrosi ta'minlandi.



# DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga **Murojaatnomasi** loyihasi

2022 – 2026-yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini belgilab beruvchi **dasturiy xujjatlari loyihasi** ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid **Davlat dasturi loyihasi**

O'tkazilgan tahlil va o'rganishlar natijasiga ko'ra

200 dan ortiq takliflarni o'z ichiga olgan

17 ta tahliliy ma'lumotnomalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha – **14** ta normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi ishlab chiqildi.

3 ta
qonun loyihasi

7 ta
Prezident farmoni va qarori loyihasi

2 ta
Hukumat qarori loyihasi

## MA’MURIY TARTIB-TAOMILLARNI TAKOMILLASHTIRISH VA MONITORING QILISH



90 ta

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiqligi yuzasidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazilib, xulosalar berildi.



27 ta taqdimnoma

vazirlik va idoralarda aniqlangan ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonun buzilish holatlarini bartaraf etish bo‘yicha kiritildi.



**“Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”**gi Qonunning yangi tahriri loyihasi ishlab chiqildi.

Ma’muriy tartib-taomillarni takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan loyihalar



2 ta

qonun loyihasi

4 ta

Prezident farmoni loyihasi

5 ta

Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi

# FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH SOHASIDA




**“yurxizmat.uz”** maxsus axborot portaliga vazirlik va boshqa idoralar tomonidan taqdim etilgan

100 dan

ortiq shartnoma namunalari joylashtirildi.

Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Savdo-sanoat palatasi tomonidan **“Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan shartnomalar tuzishda qo‘llash uchun tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lgan korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarni tasdiqlash to‘g‘risida”** qo‘shma qaror qabul qilinib, amaliyotda foydalanish uchun

60 dan

ortiq vazirlik, idoralar va boshqa tashkilotlarga yuborildi.

**Fuqarolik-huquqiy munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan**

10 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqildi

7 ta

qonun loyihasi

3 ta

Prezident hujjati loyihasi

## TARTIBGA SOLISH TA'SIRINI BAHOLASH FAOLIYATI

Sohani takomillashtirish maqsadida **10 ta** normativ-huquqiy hujjat loyihalari tayyorlandi

- **2 ta** qonun loyihasi
- **5 ta** Prezident hujjatlari loyihasi
- **1 ta** Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi
- **2 ta** idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasi

Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishning yangi tartibi ishlab chiqildi.

2021-yil davomida amaldagi **416 ta** qonunchilik hujjatlari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazildi




**164 tasida** 500 dan ortiq korrupsiyaviy omillar aniqlandi.




Qonunchilik hujjatlaridagi mavjud korrupsiyaviy normalar hamda byurokratik to'siq va cheklovlar yoki asossiz xarajatlarga olib keluvchi qoidalar yuzasidan murojaatlar qabul qilib olish uchun **"adliya_korrupsiyasizqonun_bot"** nomli maxsus bot yaratildi.

# DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH

**Ko'rsatilgan davlat xizmatlari soni:**







**2021-YILDA:**

- davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasini soddalashtirishga doir 18 ta qonun hujjatlari ishlab chiqildi.

- 48 ta davlat xizmatlari markazining filiallari markazdan olisda joylashgan hududlarda va aholi zich joylashgan mahallalarda tashkil etildi.

- Davlat xizmatlari ko'rsatishga oid 18 ta ma'muriy reglament qabul qilindi

- Davlat xizmatlarini rivojlantirish **ilmiy-amaliy markazi** tashkil etildi

**Ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari turlari**

| | |
|---|---|
| 2018-y. | 37 ta |
| 2019-y. | 130 ta |
| 2020-y. | 150 ta |
| 2021-y. | 162 ta |

**Ko'rsatilgan sayyor xizmatlar soni**

| | |
|---|---|
| 2019-y. | 396 492 ta |
| 2020-y. | 166 433 ta |
| 2021-y. | 250 000 ta |

2021-yilda kelib tushgan murojaatlarning **6 454 tasi** qanoatlantirilgan — **45,5%**

mazkur ko'rsatkich 2020-yilga qaraganda **5.6%** oshirildi.





## QULAYLIK VA YENGILLIKLAR:

Davlat xizmatlari ko'rsatilishida shaffoflikni ta'minlash maqsadida to'lovlar haqida **SMS-xabar** yuborilishi joriy qilindi

Davlat xizmatlaridan foydalanishda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan **ortiqcha to'langan to'lovlar** soddalashtirilgan tartibda bir ish kuni ichida qaytarilishi yo'lga qo'yildi

Fuqarolarning doimiy (vaqtincha) ro'yxatdan o'tgan joyidan qat'i nazar, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish **eksterritorial tamoyil** asosida amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi

- Tadbirkorlik sohasida litsenziya, ruxsat berish hamda xabardor qilish tartiblarini amalga oshirish imkonini beruvchi **"litsenziya" axborot tizimi** faoliyati yo'lga qo'yildi
- soliq organlarida soliq to'lovchilarning hisobini yuritish **jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamidan foydalangan holda** amalga oshirishga o'tish yo'lga qo'yildi
- Olis va chekka hududlarda joylashgan pochta aloqasi obyektlarida **17 turdagi davlat xizmati autsorsing asosida** ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi
- **6 ta bepul** davlat xizmatlari joriy qilindi
- Talab etiladigan hujjatlar soni **52 foizga (186 tadan 89 taga)** qisqartirildi.





# YURIDIK TA’LIM, YURIDIK KADRLARNI TAYYORLASH VA QAYTA TAYYORLASH

## TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI FAOLIYATI

**Ilmiy salohiyat ko‘rsatkichi**




- **35 tasi** fan doktori (DSc)
- **94 tasi** fan nomzodlari
- **26 nafar** nufuzli xorijiy OTMlarda tahsil olgan professor-o‘qituvchilar faoliyat yuritmoqda.

**Chop etilgan monografiyalar soni**




**Marketing.Tsul.Uz –**
talabalar to‘lov kontraktini elektron tarzda rasmiylashtirish bo‘yicha axborot platformasi yaratildi.



## E-University

shaffoflikni ta'minlash maqsadida o'quv jarayonlarini to'liq elektronlashtirishni nazarda tutuvchi **"Elektron universitet"** platformasi joriy etildi.

## Tyutorlik

Talabalar bilan ta'lim-tarbiya tizimini samarali tashkil etish borasida professional faoliyatni olib borishga mo'ljallangan tizim yo'lga qo'yildi;

## TDYU Ombudsman

TDYUning talabalari va xodimlar huquqlari bo'yicha vakili faoliyati yo'lga qo'yildi

Nomutaxassislik fanlari ulushi 22% dan 10% ga kamaytirildi.

**distant.tsul.uz –**
Moodle-obyektga yo'naltirilgan dinamik ta'lim muhiti asosida masofaviy ta'lim platformasi tashkil etildi.



## YURIDIK TEXNIKUMLAR FAOLIYATI

**1 939** dan

ortiq o'quvchi o'qishga qabul qilindi

**650** dan

ortiq o'quvchi yuridik texnikumlarga tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida qo'shimcha qabul qilish tartibi joriy etildi

**21** nomdagi

yuridik texnikumlar o'quvchilari uchun yangi avlod darsliklari chop etildi.

**2021/2022** o'quv yili

kunduzgi va sirtqi ta'lim yo'nalishlari malaka talablari, o'quv reja va fan dastur (sillabus) lari ishlab chiqildi.



## YURIDIK KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH



**760 nafar**
mediator malaka oshirdi.

**5 219 nafar**
tinglovchi malaka oshirish kurslarida oʻqitildi.

**395 nafar**
huquqiy mavzularni yoritadigan jurnalistlar, axborot xizmatlari rahbar va xodimlarining malakasi oshirildi.

**211 nafar**
adliya organlari va muassasalariga birinchi marta ishga qabul qilingan xodimlar kasbiy sohadagi bilim va koʻnikmalarini shakllantirish boʻyicha moʻljallangan oʻquv dasturi asosida oʻqitildi.




**“Yurist axborotnomasi - Vestnik yurista - Lawyer herald”**

jurnalidan Google scholar da ochiq foydalanish imkoniyati yaratildi.




**"Elektron sertifikatlar repozitoriyasi"**

tizimi, dasturiy ta'minoti va onlayn shartnoma tuzish tizimi ishga tushirildi. Ushbu tizim orqali:

**4 116**

sertifikat

**6 900 dan**

ortiq ikki tomonlama shartnomalar rasmiylashtirildi.

**4 ta**

respublika ilmiy-amaliy anjumanlari tashkil etildi.





# YURIDIK XIZMATLAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH

Yuridik xizmat sohasini takomillashtirish bo'yicha **7 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalari** ishlab chiqildi.

**Yuridik xizmat ko'rtsat-ish markazlari** faoliyati respublika bo'yicha yo'lga qo'yildi.

**"E-QAROR"** elektron tizimi ishga tushirildi. Natijada:

hokimliklar qarorini ishlab chiqish va tegishli tashkilotlar bilan kelishishga ketadigan **vaqt 2 barobarga qisqardi**

4 oy davomida 60 mingdan ortiq hujjat qabul qilinganligi sabab o'rtacha 1200 o'ram qog'oz yoki **40 mln so'm byudjet mablag'lari tejaldi**

hokim qarorlari ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilib, ular bilan **barcha uchun tanishish imkoniyati** yaratildi.



## "TARTIBGA SOLISH GILOTINASI"

Hokim qarorlariga **"tartibga solish gilotinasi"** qo'llanildi. Natijada hokimliklarning **4343 ta** umummajburiy bo'lgan qarorlari bir vaqtda bekor bo'ldi, qarorlardagi takrorlanishlar va tafovutlar bartaraf etildi.

davlat hisobida turgan hokimliklarning umummajburiy qarorlari 70% ga kamaydi




## "E-HUQUQSHUNOS"

**"e-huquqshunos"** elektron tizimi ishga tushirildi. Natijada tuman darajasidagi **12 ta** davlat idoralarining buyruq va shartnomalari elektron shaklga o'tkazildi.

**207 ta** hududdagi **2 mingdan ortiq** davlat organlarida bir xil huquqni qo'llash amaliyoti shakllandi, aholiga va bevosita ijrochilarga qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini yetkazish va tushuntirishning yangi bo'g'ini yaratildi.




Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmat xodimlarining barcha ma'lumotlarini shakllantiruvchi **"yurist.adliya.uz"** elektron tizimi yaratildi.

## HOZIRGI KUNDA RESPUBLIKADA

**4 031** ta

yuridik xizmat shtati mavjud

**3 602** nafar

yuridik xizmat xodimi faoliyat yuritib kelmoqda

## HISOBOT DAVRIDA

**230** nafar

nomzod lavozimga tayinlangan

**110** nafar

yuridik xizmat xodimi attestatsiyadan o'tkazildi




Attestatsiyadan o'tib, guvohnoma olgan yuridik xizmat xodimlari soni

Martaba darajalar berilgan yuridik xizmat xodimlari soni

**145 ta**

o'rganish va tekshirish o'tkazildi. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha

733 ta
ogohnoma

625 ta
taqdimnoma

82 ta
ma'muriy takliflar tashkilotlarga kiritildi.

# JAMIYATDA AHOLINING HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH

## MANZILLI TARG'IBOTLAR:

**200 dan ortiq** qonun hujjatlari bo'yicha targ'ibot materiallari to'plamlari (annotatsiya, slayd, flayer, infografika va b.) yaratildi.

**200 ga yaqin** targ'ibot paketlari muhim qonunchilik hujjatlari bo'yicha tayyorlanib tarqatildi.

**300 mingdan ortiq** huquqiy targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

**30 mingdan ortiq** huquqiy targ'ibot tadbirlari "Saylov – 2021: o'z kelajaging uchun ovoz ber" shiori ostida o'tkazildi.

"O'zbekiston 24" telekanalida **"Islohotlar samarasi"** va **"Qarama-qarshi"** dasturlarida hamda "O'zbekiston" telekanalida **"Mening huquqim", "Munosabat"** ko'rsatuvlarida ishtirok etildi.



## HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILDI:

- davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi faoliyatini baholashda qog'ozbozlikning oldini olish maqsadida "huquqiyportal.uz" ishga tushirildi.

- davlat organlari va tashkilotlarining targ'ibot faoliyatini baholash ko'rsatkichlari qayta ko'rib chiqilib bugungi davr talablariga moslashtirildi.

- hududiy adliya organlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi hisobotlari elektronlashtirildi.

2,5 mln dan ortiq pensiya va nafaqa oluvchi fuqarolarga **"Madad"** NNT orqali bepul huquqiy maslahat olish imkoni haqida SMS xabar yuborildi.

Hafta davomida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari bo'yicha **"Qonunchilikdagi yangiliklar"** rukni ostida videorolik tayyorlanib tarqatildi



## O‘QUV KURSLARI, SEMINARLAR TASHKIL ETILDI:

### 8 mingdan ortiq

vazirlik va idoralar xodimlari onlayn ravishda o‘qitildi

### kurslar.huquqiyportal.uz orqali

aholining keng qatlami uchun bir qator yo‘nalishlarda (xotin-qizlar huquqlari, mehnat huquqi, nikoh va oilaviy munosabatlar, tadbirkorlik va biznes yuritish, ipoteka krediti) onlayn huquqiy kurslar tashkil qilindi.




### “Vatan taqdiri – mening taqdirimda”

mavzusida 2 mln yoshlarni qamrab olgan seminar-treninglar tashkil etildi.



## AKSIYA, FLESHMOB VA LOYIHALAR

- 2021-yil iyun–dekabr oylarida **“Fermerga madad”** huquqiy aksiyasi oʻtkazildi.






- **“Tashkent Law Spring”** II Xalqaro yuridik forumi boʻlib oʻtdi.





- Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan huquqiy mavzudagi test savollarini oʻz ichiga olgan **sovrinli viktorinalar** tashkil etildi.

- “Yuksalish” umummilliy harakati va Adliya vazirligi tashabbusi asosida Oʻzbekistonda ilk bor **“Faol fuqarolar”** umummilliy festivali tashkil etildi.

O‘zbekiston mustaqilligining 30 yilligi arafasida Toshkent shahrida **“Adliyadan adliyagacha”** huquqiy marshi tashkil etildi.






“Ezgu amal” xayriya jamg‘armasi bilan hamkorlikda “O‘zbek tili bayrami” kuni munosabati bilan Toshkent shahrida **“Davlat tili – millat g‘ururi”** shiori ostida marafon tashkil etildi.





**“Biz birgamiz”** ijtimoiy loyihasi doirasida Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “Ecobozor” savdo majmuasida nogironligi bo‘lgan shaxslar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar III Respublika savdo yarmarkasi o‘tkazildi.






Adliya tizimida **“Mehr ulash”** qon topshirish xayriya aksiyasi o‘tkazildi.





Barcha hududlarda **“Adliya sayillari”** huquqiy fleshmob va aksiyalari o‘tkazildi.

Yuridik texnikum o‘quvchilari o‘rtasida **“Idrok”** intellektual o‘yini o‘tkazildi.





TDYU, yuridik texnikumlar va akademik litsey o‘quvchilari ishtirokida **“Adolat qanotlari”** klubi tashkil etildi

## TANLOVLAR O‘TKAZILDI:




Mustaqillikning 30 yilligi arafasida **“Mustaqillik – huquq demakdir”** mavzusida ijodiy tanlovi




**“Eng faol qonunchilik tashabbuskori”** tanlovi




15 yoshga to‘lgan va undan katta barcha fuqarolarning Konstitutsiya haqidagi bilimlarini sinovdan o‘tkazish maqsadida **umummilliy Konstitutsiya imtihoni**

jurnalist va blogerlar uchun **“Jamiyatda ayollar: huquq, himoya va imkoniyatlar”** tanlovi



Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura va xalqaro tashkilotlar hamkorligida **“Korrupsiyani birgalikda yengamiz!”** tanlovi



## “ADOLAT” MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI FAOLIYATI:



# 18 nomdagi

kodekslar 20 500 nusxada chop etildi.



Bolalar va yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida:

- **“Yoshlar uchun yuridik ensiklopediya”** (2000 nusxada)
- **“Bolalar uchun yuridik ensiklopediya”** (2000 nusxada)
- **“Oila davrasi uchun yuridik ensiklopediya”**lar nashr qilindi.




**“Ayollarga huquqiy madad”** amaliy qo‘llanma nashrga tayyorlandi va chop etildi.

bolalar huquqlari bo‘yicha **5 ta huquqiy roliklar** tayyorlandi.

“Oriat dono” radiokanali bilan hamkorlikda huquqiy mavzudagi **“Tavakkal”** viktorinasi yo‘lga qo‘yildi.




## yurxizmat.uz

O‘z-o‘ziga huquqiy xizmat ko‘rsatish – “Legal Tech” elektron axborot tizimi ishga tushirildi




## Lex.uz

Android va IOS operatsion tizimlar uchun mobil ilovalar ishlab chiqildi.

## SOHAVIY QO‘LLANMALAR NASHR ETILDI. XUSUSAN:

- **“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi: 100 savolga 100 javob”** risolasi o‘zbek, ingliz va rus tillarida;
- **“Saylov qonunchiligi bo‘yicha”** o‘quv amaliy qo‘llanma;




- **Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlarni yuborish bo‘yicha** o‘zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida uslubiy qo‘llanma;
- “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlariga oid”;
- “Odam savdosiga qarshi kurashishga oid”;
- “Majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid”;
- “Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid”;
- “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga oid” huquqiy qo‘llanmalar.

## “STREET LAW” (“KO‘CHA HUQUQI”)

Adliya vazirligi tomonidan joriy etilgin **“Street law”** (“Ko‘cha huquqi”) loyihasi har bir viloyatda amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda.

# JAMOATCHILIK BILAN ISHLASH

- Adliya vaziri va jurnalist hamda blogerlar ishtirokida **hisobot uchrashuvi** tashkil etildi.
- Adliya vaziri ishtirokida **“Davlat boshqaruvi, huquqiy soha va davlat xizmatlari borasidagi masalalar”** mavzusida audio podkast tashkil etildi.
- **Kun.uz, Daryo.uz, Bugun.uz, Gazeta.uz, Human.uz** kabi katta auditoriyaga ega internet saytlar bilan hamkorlik memorandumi imzolandi.





- 2021-yil 31-martdan 2-aprelgacha **Adliya vazirligi, AOKA va Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan** respublika boʻyicha jurnalist va blogerlar, mahalliy hokimliklar, davlat idoralarining viloyatdagi boʻlinmalari matbuot xizmati xodimlari uchun **maxsus oʻquv kurslari** tashkil etildi.
- **“Ochiq eshiklar kuni”** tadbiri muntazam ravishda oʻtkazib kelinmoqda.








1 500
dan ortiq

adliya organlari faoliyati bilan bog'liq axborot xabarlari va ma'lumlotlar Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirildi.




2 000
dan ortiq

materiallar "Adliya bilan muloqot" guruhiga yil davomida joylashtirildi.





**1 200** dan ortiq

adliya organlari faoliyatiga doir chiqishlar OAVlarda qilindi.

**500** tadan ortiq

ko'rsatuv, reportaj, intervyular tayyorlanib, televideniye orqali efirga uzatildi.

**100** dan ortiq

matbuot anjumanlari, brifinglar, OAV va blogerlar uchun vazirlik va adliya organlari mediaturlari tashkil etildi.

## DAVLAT TILI NUFUZINI OSHIRISH BORASIDA

- Adliya organlari va muassasalarida **davlat tilida ish yuritishni tashkil etish bo'yicha amaliy qo'llanma** tayyorlandi.
- Adliya organlari va muassasalari xodimlarining davlat tilida va lotin alifbosida ish yuritish bo'yicha malakasini bosqichma-bosqich oshirish maqsadida **o'quv kurslari** tashkil qilindi.
- Adliya organlari va muassasalarida ish yuritish, moliya-xo'jalik faoliyati va shartnomaviy munosabatlardan kelib chiquvchi **barcha turdagi hujjatlar yozuvi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq** o'tkazildi.
- **"Normativ-huquqiy hujjatlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazish: nazariya va amaliyot"** mavzusida seminar o'tkazildi.

Yuridik texnikumlar uchun huquqshunoslikka doir **27 turdagi yangi avlod darsliklari lotin alifbosida** tayyorlandi va ularning **22 turdagisi chop etildi.**




**"Til-tur"** aksiyasi tashkil etilib, **10 ta** viloyatga borgan holda davlat tilida ish yuritish bo'yicha holat o'rganildi



# NOTARIAT VA ADVOKATURA

## AMALGA OSHIRILGAN NOTARIAL HARAKATLAR SONI

| Yoʻnalish nomi | 2017-y | 2018-y | 2019-y | 2020-y | 2021-y |
|---|---|---|---|---|---|
| Amalga oshirilgan notarial harakat soni | 5 910 838 | 4 282 283 | 3 958 014 | 3 178 828 | 4 428 081 |

## NOTARIAT TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR:




- **“Notarius”** avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali 4 milliondan ortiq notarial harakatlar toʻgʻrisida maʼlumotlar kiritildi.
- **“Notarius”** AAT takomillashtirilib, maʼlumotlar kiritish, izlash shakllari yagona koʻrinishga keltirildi.

“Notarius” AAT va Ichki ishlar vazirligining **“Manzil”** elektron bazasi oʻrtasida integratsiya qilindi.

“Notarius” AAT va **“FHDYO yagona elektron arxivi”** AT oʻrtasida maʼlumotlar almashinuvi elektron hamkorlik yoʻlga qoʻyildi.



**“Yilning eng yaxshi notariusi”** va **“Yilning eng yaxshi Notarial palata xodimi”** tanlovlari tashkil etildi



O‘zbekiston notariat tizimi **Xalqaro notariuslar ittifoqiga** a’zo bo‘ldi

Har bir notarial harakatga **QR-kod** joylashtirish yo‘lga qo‘yildi.

ayrim notarial harakatlarni **onlayn** (notarial idoraga tashrif buyurmasdan) **rasmiylashtirish** mehanizmi yaratildi.

idoraviy notarial arxivda saqlanayotgan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqning vujudga kelishini nazarda tutuvchi bitimlarning **50 foizi raqamlashtirildi.**

idoralararo elektron ma’lumot almashinuvi **84% ga** yetkazildi.

## ADVOKATURA SOHASIDA:

| Yo'nalish nomi | 2017-y | 2018-y | 2019-y | 2020-y | 2021-y |
|---|---|---|---|---|---|
| Advokatlik bilan shug'ullanish uchun berilgan litsenziyalar soni | 324 | 841 | 644 | 415 | 678 |
| Ro'yxatdan o'tgan advokatlik tuzilmalari soni | 192 | 139 | 205 | 171 | 148 |
| Shundan: | | | | | |
| advokatlik hay'atlari | 0 | 1 | 1 | 0 | 0 |
| advokatlik firmalari | 27 | 10 | 24 | 8 | 10 |
| advokatlik byurolari | 165 | 128 | 180 | 163 | 138 |

- Adliya vaziri va huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari ishtirokida **"Advokatura sohasidagi muammo va yechimlar"** mavzusida respublikada faoliyat yurituvchi advokatlar bilan onlayn muloqot o'tkazildi



- Advokatlar palatasi huzuridagi **Oliy malaka komissiyasi tarkibi** qo'shma qaror asosida shakllantirildi hamda komissiya ishida muntazam ishtirok etilmoqda.
- **"Advokatura to'g'risida"**gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ishlab chiqildi.
- **"Bepul yuridik yordam to'g'risida"**gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi ishlab chiqildi.

## INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH



Joylarda
**250 dan ortiq**
o'rganishlar o'tkazildi

- **530 dan**
  ortiq taqdimnoma
- **580 dan**
  ortiq ogohnoma kiritildi
- **294 nafar**
  ishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimlar intizomiy jazoga tortildi
- **241 nafar**
  mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik chorasini ko'rish haqida takliflar kiritildi
- **71 ta**
  noqonuniy hujjat (qaror)lar bekor qilindi

Huquqlari buzilgan fuqarolarga

**5,1 mlrd. so'mdan**
ortiq mablag'lar sudgacha undirib (qaytarib) berilishi ta'minlandi.

Fuqarolarning mulk huquqlari kafolatlari bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma ishlab chiqildi. O'rganish jarayonida mamlakatimizda

**2 294 675 ta**
ko'chmas mulk obyektlari ro'yxatdan o'tmaganligi va ularga nisbatan mulk huquqi vujudga kelmaganligi aniqlandi.

## “FERMERGA MADAD” HUQUQIY AKSIYASI O‘TKAZILDI.

**Aksiya doirasida**

- **7 796 dan ortiq** targ‘ibot tadbirlari amalga oshirildi

**Fermer xo‘jaliklari manfaati yuzasidan**

- **263 ta** taqdimnoma
- **147 ta** ogohnoma
- **2 ta** ma’muriy javobgarlikka tortish yuzasidan takliflar kiritildi.





Ekologiyaga oid munosabatlarda inson huquqlariga rioya etilishi holatini o‘rganish maqsadida 2021-yil 15-30-noyabr kunlari **anonim so‘rovnoma o‘tkazildi.**

**“Saxovat”** va **“Muruvvat”** internat uylarida yolg‘iz keksalar va nogironlarni rasmiylashtirish va u yerda ularga yaratilgan shart-sharoitlar holati o‘rganildi.





# NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

**2021-YILDA**

46 ta

nodavlat notijorat tashkilotlari davlat ro'yxatidan o'tkazildi

23 ta

diniy tashkilot (masjid) davlat ro'yxatidan o'tkazildi

370 dan ortiq

chet el fuqarolari bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlarning xodimlari, shuningdek ularning qaramog'idagi oila a'zolari akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha

8 ta

normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqildi



**RESPUBLIKADA JAMI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI SONI:**

| Yo'nalish nomi | | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Ro'yxatga olingan NNTlar soni | | 9 235 | 9 860 | 10 502 | 9 161 | 9 039 |
| shundan | davlat ro'yxati | 6 148 | 6 937 | 7 347 | 6 084 | 6 216 |
| shundan | hisob ro'yxati | 3 087 | 2 887 | 3 155 | 4 300 | 2 823 |
| Ro'yxatga olingan diniy tashkilotlar | | 2 245 | 2 248 | 2 274 | 2 298 | 2 323 |
| Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudlari soni | | 231 | 236 | 244 | 250 | 261 |
| Hakamlik sudyalari soni | | 662 | 678 | 726 | 893 | 981 |






# XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIK

| Yo'nalish nomi | 2017-y | 2018-y | 2019-y | 2020-y | 2021-y |
|---|---|---|---|---|---|
| Huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan xalqaro shartnomalar loyihalari | 206 | 290 | 469 | 267 | 399 |
| Hukumat kafolatidagi qarz va kredit bitimlariga berilgan yuridik xulosalar | 20 | 20 | 31 | 17 | 25 |
| Huquqiy yordam bo'yicha ko'rib chiqilgan hujjatlar | 5 411 | 18 642 | 7 530 | 2 418 | 1 479 |
| Vazirlikda chet el rasmiy delegatsiyalari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlar | 51 | 110 | 79 | 15 | 110 |
| Vazirlik xodimlarining chet el safarlari soni | 134 | 190 | 142 | 18 | 70 |



xorijiy davlatlar adliya vazirliklari, xalqaro va xorijiy tashkilotlar o'rtasida jami

9 ta hamkorlik hujjatlari imzolandi.

## 399 ta

xalqaro shartnomalar loyihalari Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, yuridik xulosa berildi.

## 110 ta

xalqaro tashkilotlar va organlar bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadida uchrashuvlar tashkil qilindi.

## 25 ta

Hukumat kafolati ostida tuzilgan qarz va kredit shartnomalari bo'yicha yuridik xulosalar berildi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) va Huquqni rivojlantirish xalqaro tashkiloti (IDLO) bilan hamkorlikda **“O‘zbekistonda tijorat mediatsiyasini yo‘lga qo‘yish: COVID-19 ga nisbatan chora”** loyihasi ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.





Buyuk Britaniyaning Hukumatlararo hamkorlik xizmati (GPI) bilan hamkorlik **Adliya vazirligi uchun 2021–2022-yillarga mo‘ljallangan ko‘mak dasturi** ishlab chiqildi.



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MANFAATLARINING HUQUQIY HIMOYASINI TA’MINLASH

- **“Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”**gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, yuqori turuvchi tashkilotlarga kiritildi

- O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan xorijiy davlat hukumatlari o‘rtasida **“Investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoya qilish to‘g‘risida”**gi namunaviy Bitim ishlab chiqildi

- O‘zbekiston Respublikasida **qaytarilgan aktivlardan foydalanish bo‘yicha** aniq huquqiy mexanizmlar mavjud bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha taklif berildi

- Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari ta’minlanishi yuzasidan **alternativ ma’ruza** tayyorlandi

TDYUning talabalari uchun **“Investitsiyaviy arbitrajlarda O‘zbekiston Respublikasi adliya organlari va muassasalarining roli”** mavzusida mahorat darsi tashkil etildi



# MAMLAKATIMIZNING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O‘RNINI MUSTAHKAMLASH BORASIDAGI AMALIY TADBIRLAR

- 3 ta **normativ-huquqiy hujjat loyihasi** (2 ta qonun va 1 ta Prezident hujjati loyihalari) va 2 ta **chora-tadbirlar rejasi** ishlab chiqildi.

- O‘zbekiston Respublikasining siyosiy-huquqiy sohaga oid ustuvor **xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha** 2021-yilga mo‘ljallangan, jami 154 bandni o‘z ichiga olgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

- O‘zbekiston Respublikasini **Mulk huquqi alyansining Xalqaro mulk huquqi indeksida bosqichma-bosqich aks ettirishga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha** "Yo‘l xaritasi" ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

**"O‘zbekiston: besh yillik jadal islohotlar"** va **"Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish: O‘zbekiston tajribasi"** mavzusida xalqaro konferensiyalar tashkil etildi.



**"O‘zbekiston Respublikasining huquq ustuvorligi indeksidagi o‘rnini yuksaltirishga to‘sqinlik qiluvchi huquqiy omillar va ularni bartaraf etish yo‘llari"** mavzusidagi xalqaro ilmiy seminar tashkil etildi



# SUD-EKSPERTIZA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi tuzilmasida (yuridik shaxs tashkil etmagan holda) **Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti** tashkil etildi



**“O‘zbekiston sud ekspertizasining tarixi”** muzeyi ochildi



Sud-tergov organlari qarorlari (ajrimlari) hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida
**38 331 ta** ekspertiza tayinlandi.

**304 nafar** sud va tergov organlarining ekspertlari hamda vazirlik va idoralar ekspertlarining huquqiy bilimlari oshirildi.

**Yangi ekspertiza turlari sud ekspertlik jarayoniga tatbiq etildi:**

- Sud-lingvistika;
- Sud-kompyuter-texnika;
- Sud-avtomobil yo‘llari;
- Sud-elektrotexnika;
- Sud-psixologik;
- Oziq-ovqat mahsulotlari sud-ekspertizasi.



Ilk bor bosma va elektron shaklda **“O‘zbekiston sud ekspertizasi”** ilmiy jurnali chop etilishi yo‘lga qo‘yildi.



Aholiga sud-ekspertlik sohasiga doir ma’lumotlarni tezkor yetkazish maqsadida **“sudexpert.uz”** axborot portali ishga tushirildi.

## HUQUQIY SIYOSAT TADQIQOT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH



Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti tomonidan **6 ta** qonun hujjati loyihasi ishlab chiqildi. O'tkazilgan tahlil-tadqiqot natijasida davlat organlari va tashkilotlariga **100 dan ortiq** tahliliy ma'lumotnomalar kiritildi. Shundan:

- 37 ta
  Ijtimoiy-iqtisodiy sohada
- 30 ta
  Davlat boshqaruvi sohasida
- 19 ta
  Sud-huquq sohasida
- 12 ta
  Adliya organlari faoliyati sohasida
- 7 ta
  Xalqaro reyting va indekslar sohasida
- 14 ta
  boshqa sohalarda

Qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan kiritilgan takliflar soni

50 dan ortiq

Xalqaro reyting va indekslar sohasida kiritilgan tahliliy ma'lumotnomalar soni

7 ta

- Jahon bankining Boshqaruv sifati indikatorlarini hamda Jahon odil sudlov loyihasi xalqaro nohukumat tashkilotining **Huquq ustuvorligi indeksini o'rganish bo'yicha** Uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqildi.

- O'zbekiston Respublikasining **Liberal Component Index indeksida** oxirgi to'rt yil davomida to'plangan ballari hamda olingan o'rni yuzasidan omillar tahlil qilindi.

# INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA DAVLAT SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH

Intellektual mulk himoyasi boshqarmasi va hududlarda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan **Intellektual mulk himoyasi markazlari** tashkil etildi.

aholining intellektual mulk sohasi bo'yicha bilim, ko'nikma va huquqiy savodxonlik darajasini aniqlash maqsadida ijtimoiy tarmoqlar orqali **elektron so'rovnoma** o'tkazildi

Joriy yil fevral-mart oylarida “Kontrafaktsiz oy” oyligi o'tkazilib, **1600 dan** ortiq kontrafakt mahsulotlar aniqlandi.




Intellektual mulk sohasida qonunbuzilishlariga yo'l qo'yayotgan tadbirkorlik subyektlariga

**211 ta** taqdimnoma

**1 124 ta** ogohnomalar kiritildi.

**Intellektual mulk obyektlariga oid qabul qilingan talabnomalar soni:**




| Ko'rsatkich | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. |
|---|---|---|---|
| Ixtiro | 402 | 578 | 585 |
| Foydali modellar | 185 | 339 | 362 |
| Sanoat namunalari | 167 | 143 | 226 |
| Tovar belgilari | 4429 | 4974 | 7843 |
| Seleksiya yutuqlari | 43 | 114 | 79 |
| EHM uchun dastur | 1227 | 2537 | 3926 |
| Ma'lumotlar bazasi | 16 | 22 | 112 |
| Jami | 6 469 | 8 707 | 13 133 |

**Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan intellektual mulk obyektlari soni:**




| Ko'rsatkich | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. |
|---|---|---|---|
| Ixtiro | 265 | 270 | 248 |
| Foydali modellar | 71 | 105 | 164 |
| Sanoat namunalari | 142 | 105 | 136 |
| Tovar belgilari | 1790 | 1403 | 4392 |
| Seleksiya yutuqlari | 5 | 52 | 63 |
| EHM uchun dastur | 1044 | 2350 | 3510 |
| Ma'lumotlar bazasi | 12 | 21 | 66 |
| Jami | 3 329 | 4 306 | 8 579 |

**Ekspertizadan o'tkazilgan intellektual mulk obyektlari soni:**




| Ko'rsatkich | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. |
|---|---|---|---|
| Ixtiro | 659 | 669 | 534 |
| Foydali modellar | 160 | 108 | 323 |
| Sanoat namunalari | 234 | 327 | 227 |
| Tovar belgilari | 4695 | 3580 | 8420 |
| Seleksiya yutuqlari | 48 | 49 | 102 |
| EHM uchun dastur | 1100 | 3249 | 3721 |
| Ma'lumotlar bazasi | 14 | 24 | 89 |
| Jami | 6910 | 8006 | 13 522 |

# KADRLAR BILAN ISHLASH, XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH

**2021-yil 1-martdan** adliya organlari va muassasalari xodimlari malakasini oshirishning elektron platforma orqali zamonaviy **kredit-modul tizimi** joriy qilindi

**7 688** nafar – Adliya vazirligi tizimida xodimlar soni

2 700 nafar ayollar

4 988 nafar erkaklar

**O‘tgan yillarda ushbu ko‘rsatkich:**




O‘z xizmat vazifalarini vijdonan bajarib, samarali mehnati hamda sohani yanada takomillashtirishda qo‘shayotgan o‘zining **munosib hissasi uchun:**

12 nafar xodim — **“Davlat mukofotlari”** bilan

367 nafar xodim — **“O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi”** esdalik nishoni

32 nafar xodim — **“Adliya a’lochisi”** ko‘krak nishoni

4 nafar xodim — **“Huquqiy targ‘ibot ishlari a’lochisi”** ko‘krak nishoni

85 nafar xodim — **Adliya vazirligining “Faxriy yorlig‘i”** bilan taqdirlandi





**950 nafar**

xodim malaka oshirish dasturlarida ishtirok etdi.

**800 nafar**

xodim yuqori lavozimga ko'tarilgan.

**1 371 nafar**

xodimga maxsus unvon - martaba darajalari berildi.

2021-yilda adliya organlari va muassasalariga ishga qabul qilish bo'yicha **327 ta tanlov** o'tkazilgan.

Bitta lavozimga o'rtacha **5 nafar nomzod** hujjat topshirgan

Ishga kirish uchun o'rtacha ko'rsatkich **80,7 ball**ni tashkil etgan.

Vazirlik tizimida

320 nafar
xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida

260 nafar
ayollar yuqori lavozimlarga tayinlangan.

Xodimlarning ota-onalari va oila a'zolari uchun **"Family day"** tadbiri o'tkazildi.



# ADLIYA ORGANLARI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA

Tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlari va FXDYO bo'limlari foaliyatidagi **korrupsiyaviy omillarni barvaqt aniqlash tizimi** yo'lga qo'yildi

Adliya organlari va muassasalari xodimlarini korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etishiga undovchi omillarni barvaqt aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ishlarni tizimli yo'lga qo'yish maqsadida **"halollik ofitseri"** lavozimi joriy qilindi

Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022-yillarga mo'ljallangan **54 ta banddan iborat dastur** tasdiqlandi

**15 nafar**
xodim bilan mehnat shartnomalari bekor qilindi

**80 nafar**
xodim bilan profilaktik suhbat o'tkazildi.

**103 ta** -
adliya organlari va muassasalari xodimlarining nojo'ya xatti-harakatlari yuzasidan murojaat va xabarlar kelib tushdi

**16 nafar**
xodimga nisbatan tegishli choralar ko'rildi.

# MADANIY HORDIQ, XODIMLARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH

- Xodimlarni madaniy hordiq chiqarishi va do‘stona munosabatlarini yana mustahkamlash maqsadida **“Adliya kitobxonlar klubi”** faoliyati yo‘lga qo‘yildi.



## SPORT

- 2021-yil davomida adliya organlari xodimlarini sog‘lomlashtirish sportning **futbol, mini futbol, shaxmat, voleybol** va **stol tennisi** turlari bo‘yicha sport musobaqalari tashkil etildi
- xodimlar uchun har oyda **taym-menejment** va **stress-menejment treninglari, timbilding** aksiyalari o‘tkazib kelinmoqda
- 50 dan ortiq vazirliklar, idoralar va tashkilotlar o‘rtasida tashkil etilgan **“Gimnastrada” sport musobaqasida** Adliya vazirligi markaziy apparati **xotin-qizlar jamoasi faol ishtirok etib, faxrli II o‘rinni** egalladi.



## DAM OLISH MASKANLARI

Adliya organlari xodimlarining ma'naviy dunyoqarashini muntazam kengaytirib borish – zamon talabi. Shu nuqtayi nazardan adliya xodimlarining madaniy hordiq chiqarishi hamisha e'tibor markazida turadi. Har chorakda kamida bir marotaba jamoaning **teatrlarga, kinopremyeralarga, konsert** dasturlariga borishi va shu kabi madaniy tadbirlarga qatnashishi ta'minlanmoqda.

Xodimlar va ularning oila a'zolari uchun Bo'stonliq tumanida eng zamonaviy shart-sharoitlar va qulayliklar bilan ta'minlangan **"Olmos"** dam olish va sog'lomlashtirish maskani barpo etildi.



## ICHKI TURIZM

Ichki turizmni rivojlantirishga hissa qo'shish, adliya xodimlarini mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish, shuningdek, Davlat rahbarining **ichki turizmni rivojlantirish** to'g'risdagi Farmoni ijrosini ta'minlashda shaxsiy ibrat ko'rsatish maqsadida xodimlarning yurtimiz tarixiy-madaniy yodgorliklariga jamoaviy safarlari tashkil qilinmoqda.

Xususan, **2021-yil iyun oyida** xodimlar o'rtasida o'zaro mehr-oqibat, hurmat tuyg'ularini shakllantirish, jamoada ishchanlik kayfiyatini mustahkamlash maqsadida ko'hna **Xiva shahriga** sayohat tashkil qilindi.



# FARXIYLAR – FAXRIMIZ

Adliya organlari va muassasalari tomonidan tizimda fidokorona mehnat qilib, bugungi kunda nafaqada bo'lgan faxriylarni ijtimoiy himoyalash, ularning sihat-salomatligidan xabardor bo'lish, tibbiy sihatgohlarda salomatliklarini tiklashga ko'maklashish, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish ishlari tizimli ravishda olib boriladi.

Faxriylarning adliya organlarining barcha tadbirlariga, shu jumladan, hay'at majlislariga taklif qilinishi doimiy ta'minlanib borilmoqda.

Har bayramda vazirlik xodimlari tomonidan faxriylar holidan xabar olish, ular bilan dildan muloqot qilish ishlari olib boriladi.

Vazirlik rahbariyati tomonidan vazirlik Faxriylari kengashi faoliyati ham tizimli ravishda qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Kengash tomonidan turli tadbirlarni tashkil qilishda yaqindan amaliy yordam ko'rsatiladi.

Adliya vazirligi faxriylari tomonidan **2021-yilda barcha hududiy adliya organlarida xodimlar bilan uchrashuvlar** tashkil etildi.



# ADLIYA ORGANLARI XALQ BILAN MULOQOTDA

Adliya organlariga kelib tushgan murojaatlar soni:

| | |
|---|---|
| 2019-y. | 103 518 ta |
| 2020-y. | 90 041 ta |
| 2021-y. | 122 797 ta |

**67 366 ta**

murojaat qanoatlantirildi

**42 669 ta**

murojaatga huquqiy tushuntirish berildi

2021-yilda respublika bo'yicha **17** mingga yaqin sayyor qabullar tashkil qilindi

Sayyor qabullarda murojaati tinglangan jismoniy va yuridik shaxslar vakillari soni:

| | |
|---|---|
| 2019-y. | 33 094 ta |
| 2020-y. | 16 435 ta |
| 2021-y. | 24 086 ta |







## MUROJAATLARNI KO'RIB CHIQISH NATIJASIGA KO'RA:

**50 415 ta**
qonun buzilish holatlari aniqlandi;

**1 751 nafar**
bunday holatga yo'l qo'ygan shaxsga intizomiy jazo choralari ko'rildi;

**2 498 nafar**
shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish yuzasidan vakolatli organlarga xabar berildi;



**1 438 ta**
davlat organlari va tashkilotlarining hujjatlari bekor qilindi yoki ijrosi to'xtatildi.

**3 978 ta**
taqdimnoma davlat organlari va idoralariga kiritilib, fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklanishi ta'minlandi;

**152,6 mlrd.**
so'mlik da'vo arizalari sudlarga kiritildi;

**61 nafar**
shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan vakolatli organlarga xabar berildi;





## "CALL CENTER"



Adliya vazirligining
1008 qisqa raqamli
"Ishonch telefoni" orqali

**10 mingga yaqin**
jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari qo'ng'iroqlari belgilangan tartibda qabul qilindi.

**3 mingdan ortiq**
murojaat yuzasidan malakali mutaxassislar tomonidan tegishli huquqiy maslahatlar berildi.

## O'TKAZILGAN NAZORAT TADBIRLARI VA NATIJALARI:

**Davlat organlari va tashkilotlar faoliyatida jami o'tkazilgan nazorat tadbirlari:**




**O'tkazilgan tadbirlarda aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan quyidagilar kiritildi:**

**23 937 ta**
taqdimnoma

**85 351 ta**
ogohnoma

**Jinoiy javobgarlikka tortish haqida vakolatli davlat organlariga berilgan xabarlar soni:**




**Ma'muriy javobgarlikka tortish haqida vakolatli davlat organlariga berilgan xabarlar soni:**



## ADLIYA ORGANLARI TOMONIDAN QO'LLANILGAN TA'SIR CHORALARI TAHLILI

(taqdimnoma, ma'muriy va jinoiy takliflar)

| Hudud | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. |
|---|---|---|---|---|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 533 | 821 | 1169 | 1267 | 1 255 |
| Andijon viloyati | 436 | 818 | 2218 | 1715 | 2 447 |
| Buxoro viloyati | 466 | 1 018 | 2033 | 1 264 | 1 675 |
| Jizzax viloyati | 492 | 630 | 2065 | 1 567 | 2 182 |
| Qashqadaryo viloyati | 907 | 1 072 | 1914 | 2 537 | 3 562 |
| Navoiy viloyati | 372 | 506 | 1 107 | 1 111 | 2 359 |
| Namangan viloyati | 514 | 814 | 1 481 | 5 885 | 2 569 |
| Samarqand viloyati | 717 | 940 | 1 844 | 2 435 | 2 933 |
| Sirdaryo viloyati | 232 | 748 | 932 | 880 | 957 |
| Surxondaryo viloyati | 460 | 710 | 1 012 | 1 431 | 1 268 |
| Farg'ona viloyati | 600 | 1 144 | 2 329 | 1 610 | 2 633 |
| Xorazm viloyati | 474 | 673 | 1 237 | 1 082 | 2 069 |
| Toshkent viloyati | 568 | 943 | 1 389 | 1 901 | 2 209 |
| Toshkent shahar | 460 | 720 | 2 894 | 2 640 | 2 908 |
| JAMI | 7 231 | 11 557 | 23 624 | 27 325 | 31 026 |

**Qo'llanilgan ta'sir choralari natijasida:**



## 125,6 mlrd. so‘mdan

ortiq pul mablag‘lari qonuniy egalariga qaytarildi

## 202,1 mlrd. so‘mlik

17 074 ta dav’o arizalari fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab sudlarga kiritildi.

## 174,5 mlrd. so‘mlik

15 376 ta da’vo arizalari hozirgi vaqtga qadar qanoatlantirildi.

### ADLIYA ORGANLARI TOMONIDAN SUDLARGA KIRITILGAN DA’VO ARIZALARINING QANOATLANTIRILISHI NATIJASIDA QAYTARILGAN MABLAG‘LAR TAHLILI

(mlrd. so‘m)

| Hudud | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. |
|---|---|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 7,3 | 2 | 4,3 | 3,9 | 8,5 |
| Andijon viloyati | 4,9 | 3,3 | 2,7 | 10,5 | 13,2 |
| Buxoro viloyati | 2,7 | 2,3 | 6,3 | 3,6 | 14,5 |
| Jizzax viloyati | 6,7 | 5,1 | 3,4 | 8,9 | 9,3 |
| Qashqadaryo viloyati | 6,1 | 0,8 | 1,5 | 1,9 | 21,7 |
| Navoiy viloyati | 1,4 | 1,6 | 9,8 | 3,1 | 3,9 |
| Namangan viloyati | 7,8 | 3,8 | 5,5 | 4,9 | 8,8 |
| Samarqand viloyati | 8,8 | 1,5 | 2,7 | 3,5 | 7,8 |
| Sirdaryo viloyati | 7 | 1,0 | 2,0 | 6,7 | 10,4 |
| Surxondaryo viloyati | 2,9 | 3,0 | 5,2 | 6,5 | 12 |
| Farg‘ona viloyati | 14,5 | 2,1 | 2,5 | 2,8 | 6,1 |
| Xorazm viloyati | 1,4 | 1,0 | 4,6 | 2,8 | 8,1 |
| Toshkent viloyati | 7,4 | 6,4 | 28,1 | 22,3 | 43,9 |
| Toshkent shahar | 2,1 | 14,7 | 3,0 | 3,5 | 6,3 |
| JAMI | 81,0 | 48,6 | 81,6 | 84,9 | 174,5 |

# III

# Adliya vazirligining 2022-yildagi rejalari

## SOHANI TIZIMLI RIVOJLANTIRISHDA:

- Aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish darajasini oshirish maqsadida jismoniy shaxslarni identifikatsiyalashning Mobil–ID tizimini joriy etish
- Jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi boʻlgan shaxslarga davlat xizmatlarini koʻrsatishda inklyuziv muhit (zarur moddiy-texnik baza, alohida operatorlar, surdo xizmatlari va b.) yaratish
- FHDYO organlariga elektron murojaat qilishni toʻliq yoʻlga qoʻyish
- **2500 ga** yaqin normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va 2000 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan oʻtkazish;
- **1990-2016 yillar** oraligʻida qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi hukumatining qarorlarini xatlovdan oʻtkazish, xatlov natijasida **eskirgan va oʻz ahamiyatini yoʻqotgan** normalarni bekor qilish boʻyicha takliflar ishlab chiqish;
- tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi **5 000 ga yaqin** qonunchilik hujjatlarini tizimlashtiruvchi **Tadbirkorlik** va **Intellektual mulk kodekslarini** ishlab chiqish va qabul qilish;
- koʻrsatiladigan davlat xizmatlari sonini **11 mln.** ga yetkazish, **50 ta davlat xizmatlarining** tartib-taomillarini optimallashtirish hamda **15 ta** davlat xizmatlarini elektron shaklga oʻtkazish;
- **mobil ilova orqali** davlat xizmatlarini koʻrsatishni joriy qilish;
- ma'muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida davlat organlarining **bir-birini takrorlaydigan funksiyalarini maqbullashtirish,** respublika darajasidagi davlat boshqaruvi organlari vakolatlarini quyi tizimlarga oʻtkazish boʻyicha loyihalarni taqdim etish;
- davlat boshqaruvi organlarining buyruq va farmoyishlarini bosqichma-bosqich **“E-qaror” elektron tizimida** e'lon qilish orqali jamoatchilikka yetkazish tizimini yoʻlga qoʻyish;
- Respublikaning barcha maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalri va oilaviy poliklinikalarni hujjatlarini raqamlashtirish hamda ularning barcha hujjatlarini Yuridik xizmat koʻrsatish markazlari tomonidan koʻrib berish tizimini joriy qilish;
- “Inson huquqlari – oliy qadriyat” loyihasi doirasi “Fuqarolarning axborot olish kafolatlarini ta'minlash” huquqiy aksiyasini oʻtkazish.
- Ijtimoiy soha xodimlarining huquqlarini himoya qilish yuzasidan huquqiy aksiya oʻtkazish.

## XODIMLARNI IJTIMOIY HIMOYASINI KUCHAYTIRISH:

- Xodimlarni malaka oshirish uchun yetakchi xorijiy davlatlarga yuborishni koʻpaytirish;
- Xodimlar oʻrtasida sport tadbirlarini tizimli tashkil qilish.

# XULOSA

Mana, biz yana bir muhim – 2021-yilni yakunladik. Mazkur yilda ko'p natijalarga erishildi, maqsadlar sari yana bir qadam tashlandi. Shu bilan birga, 2022-yilda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan muhim vazifalari amalga oshirilishi lozim.

Shunday mas'uliyatli davrda adliya organlari oldida o'ta jiddiy vazifalar turibdi.

Xususan:

- *tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi 5 000 ga yaqin qonunchilik hujjatlarini tizimlashtiruvchi Tadbirkorlik va Intellektual mulk kodekslarini ishlab chiqish;*
- *mobil ilova orqali davlat xizmatlarini ko'rsatishni joriy qilish;*
- *davlat boshqaruvi organlarining buyruq va farmoyishlarini bosqichma-bosqich "E-qaror" elektron tizimida e'lon qilish orqali jamoatchilikka yetkazish tizimini yo'lga qo'yish;*
- *Ijtimoiy soha xodimlarining huquqlarini himoya qilish yuzasidan huquqiy aksiya o'tkazish va boshqalar.*

Oldimizga qo'ygan maqsadlarimiz bizning aniq, rejali va tizimli ishlarimiz uchun rag'bat va dasturilamal bo'ladi. Zero, aniq maqsad bilan qilingan ish yuqori samara beradi.

**Adliya organlari 2022-yilda ham xalq bilan birga!**

**ADLIYA HISOBOT BERADI**
**2021-yil sarhisobi va rejalar**

**Nashr uchun mas'ullar:** S. O'rinboyeva, F. Tojiyev, Sh. Abdullayev
**Muharrir:** D. Matkarimova
**Dizayner:** J. G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi.
Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.
Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.
Telefonlar: 71-233-28-18, 71-280-55-47
Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz
e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Bosishga ruxsat etildi 01.02.2022-y. XDFU.
Qog'oz bichimi 84x108 1/16. "Raleway" garniturasi.
Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 5,0.
Nashriyot hisob tabog'i 6,3. Adadi 500 nusxa. ...-buyurtma.

"Print Line Group" xususiy korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Bunyodkor shohko'chasi, 44-uy.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2022-y.